

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025
TABIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.R.Usmanov, N.A.Suyarova, S.A.Normatov	
Cho'l turizmini hududiy tashkil etishning geografik xususiyatlari (Qashqadaryo viloyati misolida)	262
J.T.Makulov	
Sel toshqinlarining dinamik ko'rsatkichlarini baholash	268
I.Z.Akaboyev	
Qoradaryo havzasi muzliklarining balandlik xususiyatlari va morfologik turlari	274
Sh.Z.Jumaxanov A.A.Abdullayev	
O'zbekiston yoqilg'i-energetika majmuasining tarmoq va hududiy tarkibi	280
A.F.Raxmatov	
Surxondaryo viloyati qishloq xo'jaligida bog'orchilik sohasining ahamiyati va istiqbollari	289
O.O.Baltabayev	
Qoraqalpog'iston oykonimiyasining spektral va stratigrafik tarkibi va undagi hududiy tafovutlar	294
B.R.Rapiqov	
Markaziy Osiyoda Sirdaryo suv resurslaridan hamkorlikda foydalanish masalalari.....	301
X.A.Abdvaluhiyev	
Aholi joylanishiga ta'sir etuvchi iqtisodiy omillar	306
D.X.Yuldasheva	
Aholining demografik faolligi ijtimoiy-geografik obyekt sifatida.....	315
O.B.Abdurayimova	
Global iqlim o'zgarishi davrida o'rta Zarafshon havzasidagi suv omborlarining atrof-muhitga ta'siri	320
M.R.Qoriyev	
Namangan viloyatidagi sug'oriladigan yerlarning ikkilamchi sho'rlanish muammosi va uni bartaraf etish imkoniyatlari.....	331
R.T.Pirnazarov	
Tog' ko'llarining evolyutsiyasi, genetik tasniflari va o'ziga xos xususiyatlari.....	340

ILMIY AXBOROT

I.Sh.Tugizova	
<i>Achillea</i> L. turkumiga mansub ayrim dorivor turlar tahlili	344
D.I.Komilova, B.M.Sheraliyev	
Qoradaryo ixtiofaunasi: antropogen omilning faol ta'siridan oldin va keyin	348
I.Sh.Tugizova	
<i>Achillea mellifolium</i> L. o'simligining fitokimyoviy tarkibi va xalq tabobatida qo'llanilishi	355
O.M.Gafurova, Sh.A.Xalimov, B.M.Sheraliyev	
<i>Schizothorax</i> Heckel, 1838 (Teleostei: Cyprinidae) urug'ining qisqacha o'rganilish tarixi va hozirgi sistematik holati	355



UO'K: 634.1+333.3+631.1

**SURXONDARYO VILOYATI QISHLOQ XO'JALIGIDA BOG'DORCHILIK SOHASINING
AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI****ЗНАЧЕНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ САДОВОДСТВА В СУРХОНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ
СЕЛЬСКОЕ ХОЗЯЙСТВО****IMPORTANCE AND PROSPECTS OF THE HORTICULTURE SECTOR IN AGRICULTURE
OF SURKHANDARYA REGION****Raxmatov Abduxoliq Farxodovich** 
Farg'ona davlat universiteti, doktorandi**Annotatsiya**

Surxondaryo viloyati O'zbekistonning janubiy qismida joylashgan bo'lib, bog'dorchilik uchun juda qulay iqlim sharoitiga ega bo'lganligi sababli, qishloq xo'jaligining rivojlanishi va bog'dorchilik tarmoqlarining shakllanishi bilan uzviy bog'liq. Viloyat bog'dorchilik sohasi bilan qadimdan shug'ullanib keladi. Viloyatda qulay tabiiy geografik sharoit va mehnat resurslariga asoslangan qishloq xo'jaligi (paxtachilik, bug'doychilik, uzumchilik, subtropik mevalilik) yaxshi rivojlangan.. Viloyatda meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash sohasi rivojlanmagan tarmoqlardan biri bo'lib, bog'dorchilik, ayniqsa, sitrus mevalarni qayta ishlash hisobiga viloyat sanoat mahsulotlari ulushini oshirish muhim ahamiyatga ega. Tog'li va tog'oldi hududlarda meva yetishtirish istiqbollari yuqori, ayniqsa, anor, uzum, olma va o'rik kabi eksportbop mahsulotlar ko'p yetishtiriladi. Bu borada viloyat iqtisodiyoti va bog'dorchilik rivojiga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatmoqda. Viloyatda meva-sabzavot qayta ishlash korxonalarining ko'payishi qo'shimcha qiymat yaratishga va eksport ko'rsatkichlarini oshirishga hissa qo'shadi.

Quritilgan meva, shirinliklar, sharbatlar ishlab chiqarish sohasida qo'shimcha sarmoya kiritish muhimdir. Bu birinchidan, paxta hosildorligi pasayganligi sababli paxta tozalash zavodlarining to'liq quvvat bilan ishlamay qolishi, ikkinchidan, meva, uzum va boshqa mahsulotlarni qayta ishlovchi sanoat korxonalarining yo'qligidir. Bog'dorchilik sohasida ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish, fermerlar va ishchilarni zamonaviy usullarga o'qitish mintaqaning raqobatbardoshligini oshiradi.

Maqolada Surxondaryo viloyatida bog'dorchilik sohasiga qaratilayotgan e'tibor, bu boradagi yutuq va kamchiliklarga to'xtalib o'tilib, taklif va tavsiyalar berilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, situris mevalaridan tibbiyot sohasida foydalanish mumkin. Viloyatimizda qulay agroiklim resurslaridan to'g'ri foydalanish xalqimiz uchun foydali, deb hisoblanadi. Surxondaryo viloyatida bog'dorchilik sohasining istiqbollari katta. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, hududning eksport imkoniyatlarini kuchaytirish va ekologik mahsulotlar yetishtirish kelgusida mintaqaning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Аннотация

Сурхандарьинская область расположена в южной части Узбекистана и имеет очень благоприятные климатические условия для садоводства, поэтому тесно связана с развитием сельского хозяйства и формированием отраслей садоводства. В провинции издавна занимается садоводством. В регионе хорошо развито сельское хозяйство (хлопководство, виноградарство, виноградарство, субтропические плоды), основанное на благоприятных природно-географических условиях и трудовых ресурсах. Переработка фруктов и овощей является одной из слабо развитых отраслей региона, садоводство, особенно переработка цитрусовых. Важно увеличить долю промышленной продукции региона. Горные и предгорные регионы имеют большие перспективы для выращивания фруктов, особенно в изобилии выращиваются экспортные продукты, такие как гранаты, виноград, яблоки и абрикосы. В связи с этим на развитие региональной экономики и садоводства влияет ряд факторов. Увеличение предприятий по переработке фруктов и овощей в регионе будет способствовать созданию добавленной стоимости и увеличению экспортных показателей.

Важно сделать дополнительные инвестиции в производство сухофруктов, сладостей, соков. Это, во-первых, неспособность хлопкоочистительных заводов работать на полную мощность из-за снижения урожайности хлопка, во-вторых, отсутствие промышленных предприятий по переработке фруктов, винограда и другой продукции. Расширение научных исследований в области садоводства, обучение фермеров и рабочих современным методам повысят конкурентоспособность региона.

В статье акцентируется внимание, уделяемое сфере садоводства в Сурхандарьинской области, ее достижениям и недостаткам, даются предложения и рекомендации. Видно, что плоды ситуриса можно использовать в области медицины. Правильное использование благоприятных агроклиматических ресурсов нашего региона считается полезным для нашего народа. Перспективы садоводства в Сурхандарьинской

области велики. Использование современных технологий, укрепление экспортного потенциала региона и производство экологической продукции будут иметь важное значение в дальнейшем развитии региона.

Abstract

Surkhondaryo region is located in the southern part of Uzbekistan and is inextricably linked with the development of agriculture and the formation of horticultural industries, as it has very favorable climatic conditions for horticulture. The region has been engaged in horticulture for a long time. Agriculture (cotton growing, wheat growing, viticulture, subtropical fruit growing) based on favorable natural geographical conditions and labor resources is well developed in the region. The processing of fruit and vegetable products is one of the underdeveloped sectors in the region, and it is important to increase the share of industrial products of the region due to horticulture, especially citrus fruit processing. The prospects for fruit growing are high in mountainous and foothill regions, especially export-oriented products such as pomegranates, grapes, apples and apricots are grown in large quantities. In this regard, several factors affect the development of the regional economy and horticulture. The increase in fruit and vegetable processing enterprises in the region contributes to the creation of added value and an increase in export indicators.

It is important to make additional investments in the production of dried fruits, sweets, and juices. This is due, firstly, to the fact that cotton ginning plants are not operating at full capacity due to a decrease in cotton yield, and secondly, to the lack of industrial enterprises processing fruits, grapes, and other products. Expanding scientific research in the field of horticulture, training farmers and workers in modern methods will increase the competitiveness of the region.

The article discusses the attention paid to the field of horticulture in Surkhondaryo region, its achievements and shortcomings, and provides suggestions and recommendations. It is clear from this that citrus fruits can be used in the medical field. The proper use of favorable agro-climatic resources in our region is considered beneficial for our people. The prospects for the horticulture sector in Surkhondaryo region are great. The use of modern technologies, strengthening the region's export potential, and the production of ecological products will be of great importance in the future development of the region.

Kalit so'zlar: Qishloq xo'jaligi, turdosh sohalari, qulay tabiiy geografik sharoitlar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, bog'dorchilik mahsulotlari, sitrus mevalari, bog'dorchilik mahsulotlarini qayta ishlash, intensiv bog'lar, tog'li hududlar, daraxtzorlar, fermer xo'jaliklari, taklif va tavsiyalar

Ключевые слова: Сельское хозяйство, смежные отрасли, благоприятные природно-географические условия, сельскохозяйственная продукция, садоводческая продукция, цитрусовые, переработка садоводческой продукции, интенсивные сады, горные регионы, питомники, фермерские хозяйства, предложения и рекомендации.

Key words: Agriculture, related fields, favorable natural geographical conditions, agricultural products, horticultural products, citrus fruits, processing of horticultural products, intensive gardens, mountain regions, tree nurseries, farms, offers and recommendations.

KIRISH

Respublikamizning janubida joylashgan viloyat hisoblangan Surxondaryo viloyati o'zining serquyoshligi, baland tog'lari, jo'shqin daryolari bilan hamda o'ziga xos iqlim sharoiti orqali boshqa viloyatlardan farq qiladi. Iqlimning buqadar forqliy bo'lishiga viloyatning suptopik mintaqada joylashganligi sabab qilib ko'rsatiladi.

Surxondaryo viloyatining murakkab orografik xususiyati balandlik mintaqalarining paydo bo'lishiga va yog'in sochin taqsimotining ham turlicha bo'lishiga sabab bo'ladi. Iqlimning quruqligi viloyatning shimoli-g'arbidan janubi-sharqiga borgan sari ortib boradi. Ushbu yo'nalish bo'yicha yoz faslidagi havo harorati ortadi, qishda esa pasayadi, fasllararo yuz beradigan bunday o'zgarish joyning yer usti tuzilishi (relyef formalarining) o'zgarishi bilan bog'liq. Iqlimiy sharoitdagi keskin o'zgarish ayniqsa tog'li hududlarida ko'p kuzatiladi. Viloyatning tekislik qismlaridan tog'larga ko'tarilgan sari iqlim o'zgarib boradi. Tekislik qismlarida yoz serquyosh, issiq va quruq, qish esa qisqa va iliq, biroq atrofidagi tog'larda esa sovuqroq bo'ladi. Viloyat sharqdan, shimoldan va g'arbdan tog'lar bilan o'rab olinganligi tufayli sovuq havo oqimini to'sadi, natijada qish respublikamizning boshqa hududlariga nisbatan iliq bo'lib, yanvar oyining o'rtacha harorati Termizda 3,0°, Sherobodda esa 4,8° ni tashkil etadi [3; 80-b].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Surxondaryo viloyati iqlimi va tabiiy sharoitlari bu kabi xususiyatlari qishloq xo'jaligining turli sohalari, jumladan, bog'dorchilikni rivojlantirish uchun ham qulay hisoblanadi. Viloyatda mevasabzavot yetishtirish qadimdan rivojlangan bo'lib, ayniqsa, uzumzorlar, anorzorlar va bodomzorlar keng tarqalgan. Uzum yetishtirish borasida viloyatda Oltinsoy tumani alohida ajralib turagan holda, uzumzorlarning maydoni 4657 gektar ni tashkil qiladi [5;24-b.]. Bu ko'rsatgich bo'yicha viloyatda yetakchilik qiladi. Anor yetishtirish borasida Sherobod tumani yaqqol yetakchilik qiladi. Bunga asosi sabab qulay iqlim va yuqori tajribaning samarasidir. Anor yetishtirish borasida viloyatda o'tgan asrning oxiriga qadar Sariosiyo tumani o'zining «Dashnabod» anorlari bilan respublikada mashhur

GEOGRAFIYA

edi. So'ngi yillarda qo'shni respublikada Tojikistondagi "Tursunzoda" alyuminiy zavodidan chiqayotgan zaharli moddalar ta'sirida tumandagi bog'dorchilik sohasiga putur yetkazdi.

Viloyat hududining 70 foiz maydoni tog' va tog' oldi tekisliklardan iborat bo'lishi danakli meva hisoblanagan pista va bodom yetishtirishda bir qator qulayliklar keltirib chiqaradi. Bu kabi mevalarni yetishtirishda viloyatda Uzun tumani yaqqol peshqadamlik qilgan holda 27521 gektar maydoni egallaydi. Boysun va Sariosiyo tumanlarida mos ravishda 47 va 8 gektar. Viloyatimizda yetishtirilayotgan bu maxsulotlar nafaqat ichki bozorni, balki eksport uchun mahsulot yetkazib berishda ham muhim o'rin tutadi.

Viloyatda bog'dorchilik maxsulotlarini qayta ishlash o'z yechimini kutayotgan sohalaridan biri hisoblanadi. Bog'dorchilik maxsulotlarini qayta ishlash va xususan sitrus mevalarni o'zimizda qayta ishlash orqali viloyat sanoat maxsulotlari ulishini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada viloyat iqtisodiyotining rivojlanishiga hamda bog'zorchilikning rivojlanishiga birqancha omillar ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi:

1. Quyosh nurlari va harorat;
2. Sug'orish imkoniyatlari;
3. Tuproq xususiyatlari;
4. Viloyatning geografik o'rni;
5. Yetarli tabiiy sharoit, yer suv bilan yaxshi ta'minlanganligi;
6. Tashqi bozorning yaqinligi (viloyat 3 ta xorijiy davlat bilan chegaradosh);
7. Demografik vaziyatning qulayligi;
8. Ekologik barqarorlikni taminlovchi unsu;

Bugungi kunda bog'dorchilik sohasi viloyatda rivojlangan deb bo'lmaydi. Ayni vaqtda mintaqada bog'dorchilik maxsulotlarini qayta ishlashga va ularni rivojlanishiga ayrim salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar ham yo'q emas. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin;

-Aksariyat bog'dorchilik sohasiga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarining tog'li va tog' oldi hududlarda joylashganligi;

-Intensiv bog'larning kamligi;

-Bog'dorchilik maxsulotlarini qayta ishlaydigan zavod va korxonalarning kamligi;

-Yuqori xosildorlik faqatgina ayrim tumanlarda kuzatilishi;

-Qiziriq, Bandixon, Muzrobod kabi yer osti suv miqdori yaqin joylashgan tumanlarda mevali daraxtlarning kamligi yoki umuman o'sishi va rivojlanishi uchun sharoitning yetarli emasligi;

-Ilmiy tatqiqot va laboratoriyalarning yo'qligi;

-Savdo va iqtisodiy aloqalarning muntazam yo'lga qo'yilmaganligi;

-Bog'dorchilik sohasi rivojlangan mintaqalar bilan tajriba va malaka oshirish ishlarining yo'lga qo'yilmaganligi va boshqalar;

Viloyat iqtisodiyotini yaqin kelajakda barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan qishloq xo'jaligi va qayta ishlash sanoatiga bog'liq. Viloyat qishloq xo'jaligi 1960-1990 yillar davomida yangi yerlarni o'zlashtirish hamda chorvachilik sohasida chorva mollar bosh sonini oshirish evaziga, ya'ni ekstensiv tarzda rivojlanib bordi. Yaqin kelajakda esa qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirish, dehqonchilikda va bog'dorchilik mahsuldorligini intensiv tarzda oshirib borish nazarda tutiladi. Bugungi kunda bog'lar maydonini kengaytirish orqali hosildorlikni oshirishning imkoni mavjud emas. Shu sababli mavjud yerdan intensive tarzda foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Viloyatning qishloq xo'jaligi yerlarining asosiy qismining eksport tarkibini asosan paxta tolasi tashkil etadi. Ayni vaqtda bu yerda paxta va ipak xom ashyosi yetarli bo'lsada, uni qayta ishlash negizida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish sust rivojlangan. Bundan xulosa qiladigan bo'lsak viloyatda bog'dorchilik sohasini rivojlantirish bilan birgalikda qayta ishlash sohasini ham rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Sohada qo'shimcha tarmoq sifatida viloyat iqlimidan kelib chiqqan holda zamonaviy sitrus bog'lar tashkil etish yangi daraxt va ekin turlarini joriy qilish nazarda tutilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Bog'dorchilik bilan tog' oldi tumanlar xususan Sariosiyo, Uzun, Boysun, Oltinsoy, Sho'rchi, Denov, Qumqo'rg'on tumanlarida ko'proq yetishtirilishini ko'rishimiz mumkin, ayniqsa, bog'dorchilikka Denov tumani anchayin ixtisoslashganini ko'rishimiz mumkin, gulchilik,

ko'chatchilik, siturus daraxt ko'chatlari va boshqa bog'lar mavjud. Tuman Sariosiyo va Uzun tumanidan tashqari barcha tumanlarni ko'chat bilan taminlaydi.

Viloyatimizning janubiy tumanlarida Qiziriq, Muzrabod, Angor tumanlarida tuprog'i sho'rtob bo'lganligi tufayli, hattoki, ko'p yillik yirik daraxtlarni ham uchratish qiyin, bunga asosiy sabab qilib yer osti suvlarining yaqinligi va ushbu suvlarning sho'rligini hamda ob-havo injiqliklari sabab bo'ladi. Ushbu tumanlarda manzarali daraxtlar va sho'rga chidamli daraxtlarni uchratishimiz mumkin. Ammo so'ngi yillarda Qiziriq va Sherabod tumanlarida paxta dalalari maydonini qisqartirib o'rniga anor, olxo'ri va olcha daraxtlarini ekish yo'lga qo'yilmoqda. Albatta bu o'z samarasini bermasdan qolmadi.

Bugungi kunda tuman hududida 6 ming 15 gektar yer maydonlarida olma, anor, uzum, o'rik, behi va boshqa mevalar yetishtirilmoqda. Shuningdek aholi tomorqalarining 1 ming 40 gektar yer maydonida anor mevalari yetishtirilib, har yili ularning 50 foizdan ortig'i xorij davlatlariga eksport qilinyapti. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil 30 aprel-1 may kunlari Surxondaryoga tashrifi doirasida Sherobodda anor yetishtirishni rivojlantirish, buning uchun 3 ming gektar yerda anorzorlar barpo etish kerakligi haqida ko'rsatma bergandi. Tumanda shuncha yer maydonlariga ekilgan anor ko'chatlari bugunga kelib dastlabki mevalarini bera boshladi [8; 2-b.].

Surxondaryo viloyatida bundan tashqari uzumchilik bilan ham shug'ullanuvchi 465 ta fermer xo'jaligi faoliyat ko'rsatib kelmoqda, ushbu fermer xo'jaliklariga 5652 ga yer ajratilgan bo'lib, ularning aksari Oltinsoy 400 ta, Jarqo'rg'on 16 ta, Qiziriq 12 ta va boshqa tumanlar hissasiga to'g'ri keladi [5;645-647-b.]. Ko'rib turganimizdek, bu soha bo'yicha Oltinsoy tumani mutloq yetakchi sanaladi ushbu tumanda uzumchilik fermer xo'jaliklari uchun ajratilgan yerlar 4657 ga ni tashkil qiladi. Ushbu tuman Hisor tog' tizmasiga yaqin joylashganligi evaziga iqlimiy va geografik afzalliklari tufayli sifatli va serhosil uzum navlarini yetishtirish uchun qulay sharoitlar yaratadi. Oltinsoy uzumlari sifatli mahsulot sifatida nafaqat ichki bozorga, balki eksportga ham yo'naltirilmoqda. Ayniqsa, quritilgan uzum (mayiz) yetkazib berish eksport salohiyatini oshirishga yordam bermoqda. Tumani uzumchilik uchun tabiiy va iqtisodiy jihatdan qulay hududdir. Tabiiy sharoitlar va iqlimiy afzalliklar bilan birga, uzum yetishtirish va qayta ishlash sohasida joriy etilgan innovatsiyalar tumanning bu boradagi salohiyatini yanada oshirishi mumkin. Shu bilan birga, mavjud muammolarni bartaraf etish orqali uzumchilikni yanada yuqori darajaga ko'tarish mumkin bo'ladi.

1-jadval

Surxondaryo viloyatida mavjud subtropik mevali bog'lar bo'yicha

MA'LUMOT

№	Tumanlar nomi	Jami			Shundan		kutilayotgan hosil yalpi hosil tonna
		Jami maydonga	yosh bog'larga	Hosilli maydonga	f/x va qishloq xo'jaligi korxonalarida, gektar	aholi tomorqalarida gektar	
1	Termiz shaxri	1,0	0,2	0,9		1,0	56
2	Angor	7,3	0,4	6,9	5	2,3	451
3	Bandixon	3,3	0,3	3,0	2,1	1,2	195
4	Boysun	3,7	0,6	3,1	0,3	3,4	199
5	Denov	14,0	2,0	12,0	5,5	8,5	777
6	Jarqo'rg'on	31,3	5,1	26,2	0,9	30,4	1706
7	Qiziriq	2,5	0,2	2,3		2,5	148
8	Qumqo'rg'on	30,4	4,9	25,5		30,4	1659
9	Muzrabod	4,9	1,0	3,8	0,2	4,7	248
10	Oltinsoy	67,6	10,0	57,6	6	61,6	3744
11	Sariosiyo	44,5	5,7	38,8	21,5	23,0	2523
12	Termiz tumani	30,8	1,0	29,9	25,0	5,8	1941
13	Uzun	4,0	0,9	3,1	0,2	3,8	202
14	Sherobod	3,0	0,3	2,7		3,0	174
15	Sho'rchi	41,1	2,9	38,2	24,4	16,7	2480
	Viloyat jami	289	36	254	91	198	16504

Izoh: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. <https://stat.uz/>

GEOGRAFIYA

Surxondaryo vohasida qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish maqsadida bo'glar va ekinzor maydonlari hosil qilinmoqda. Hozirgi kunda viloyatning qishloq xo'jaligi maqsadida foydalaniladigan yerlar maydoni 277871 gektarni tashkil qiladi. Shundan yangi intensiv bog'lar 36 ming gektarni va xosilli maydon 254 ming gektarni tashkil qiladi va bu bog'lardan kutilayotgan yalpi hosil miqdori 16.5 tonnaga teng. Bundan tashqari aholi tomorqa yerlari 198 g fermer va qishloq xo'jaligi yerlari 91 ming g mavjud. Quydagi (1-jadvalda), ko'rinib turibdiki viloyat miqyosida eng katta maydonni Oltinsoy tumani 67,6 g egallagan va bu tomondan kutilayotgan yalpi hosili miqdori 3,7 tonnaga teng [5;645-647-b.].

Bog'dorchilik sohasining yer resurslaridagi o'rni haqida to'xtaladigan bo'lsak, bir qator ijobiy xususiyatlarini ko'rishimiz mumkin.

1. Manzarlari hisoblangan tut, jiyda, anjir va boshqa daraxtlar asosan dala atroflariga ekiladi, bu esa ariqlarning yemirishini oldini olish bilan bir qatorda tuproq eroziyasini kamaytiradi.

2. Yer osti suvlari yaqin joylashgan tumanlarga ekilgan daraxtlar tuproq tarkibida tuzlarning kamayishini taminlash bilan bir qatorda gumus miqdorining ortishini taminlaydi.

3. Bog'dorchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaligi yerlaridan (bog'lar orasidagi yerlardan) dehqonchilik va chorvachilikda foydalanish imkoniyati mavjud.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni takidlash joizki viloyatda yangi turdagi bog'larni tashkil qilishni ko'paytirish xususan Zaytun bog'larni kirib kelishini ko'paytirish hamda uni qayta ishlashni rivojlantirish, zaytuning mevasi, bargi, hattoki tanasi ham inson salomatligi uchun foydali. Hozirgi kunda Jarqo'rg'on tumanida 6 g yer maydonga zaytun ko'chatlari ekilgan, takidlash joizki Oltinsoy tumanida 35 so'tix joydan 2021 yil oxirida 200 kg maxsulot olish rejalashtirilgan, bundan ko'rinib turibdiki viloyatimiz sitrus va tropik maxsulotlarni yetishtirish samaraliroq natija beradi.

Surxondaryo viloyati respublikada limon, apilsin, mandarin maxsulotlarini yetishtirishda yetakchilar qatorida turadi. Ushbu maxsulotlarni viloyatimiz yetishtiradi va sotadi, vaholanki ularni qayta ishlasak olinadigan daromat bundan ham ko'proq bo'ladi. Viloyatimizdagi qulay agroiqilimiy resurslardan munosib foydalanishimiz xalqimiz uchun foydali hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A. A. Solyev "Qishloq xo'jaligi geografiyasi" Toshkent – 2002 yil. 95-98 betlar.
2. Abdunazarov, H. M., Niyozov, X. M. "ISSUES OF ECONOMIC AND SOCIAL DEVELOPMENT OF KUMKURGAN DISTRICT", Middle scientific bulletin, 2021-yil 113-bet.
3. Abdunazarov H.M., Umarova M.H., SURXONDARYO GEOGRAFIYASI (1-qism.Tabiiy geografiya) O'quv qo'llanma. Termiz – 2023. 80-bet.
3. Allanov Q.A., & Choriev A.Q. (2021). Effects on the Location and Development of the Production Forces of the South Surkhan Reservoir. Middle European Scientific Bulletin, 11. <https://doi.org/10.47494/mesb.2021.11.495>. 43-bet.
4. Rakhmatov Abdulkholiq Farkhodovich "Development of Fishing Farms in River and River Areas of Surkhandarya Region" Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 2021 yil. 115- bet.
5. Raxmatov A.F., Alimardonova A.Q., Surxondaryo viloyati bog'dorchiligining zamonaviy geografik o'rinishi. "ZAMONAVIY JAMIYATDA FAN VA TA'LIMNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI: MUAMMO VA YECHIMLARI" mavzusidagi Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari, Termiz, 2021yil, 19 oktyabr, 645-647 betlar
6. Surxondaryo viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasi 2019 yil hisoboti. 24-bet.
7. www.agroinspeksiya.uz
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari.<https://stat.uz/>